TALABALARNING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRIŞNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Moxinur Sobit qizi Nimatova*
Özbekiston milliy pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotçisi
✉ nimatovamohinur@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantiriş bilan boğliq pedagogik muammolar tahlil qilingan. Xususan, mustaqil ta’lim mazmunining kasbiy-amaliy könikmalarni şakllantirişga yetarliça yönaltirilmaganligi, mustaqil ta’lim jarayonini boşqariş va pedagogik qöllab-quvvatlaş mexanizmlarining takomillaşmaganligi, şuningdek, pedagogik mahoratning rivojlanganlik darajasini baholaş mezonlarining yetarliça tizimlaştirilmaganligi yoritilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlaştiriş va tizimli yondaşuv metodlaridan foydalanilgan. Muammolarni bartaraf etiş yuzasidan mustaqil ta’lim topşiriqlarini amaliy yönaltiriş, bosqiçma-bosqiç pedagogik qöllab-quvvatlaş va diagnostik baholaş tizimini takomillaştirişga doir takliflar işlab çiqilgan.

Kalit so‘zlar

pedagogik mahorat, talaba, mustaqil ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnika, kommunikativ kompetentlik, refleksiya, kreativlik, pedagogik vaziyat, baholaş mezonlari.

DOI: 10.5281/zenodo.24467067

KIRIŞ

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida bölajak pedagoglarni zamonaviy kasbiy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, pedagogik vaziyatlarni töğri baholay oladigan va ta’lim jarayonini samarali taşkil etişga qodir mutaxassislar sifatida tayyorlaş muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Çunki pedagogning kasbiy faoliyati faqat nazariy bilimlarni egallaş bilan çeklanmaydi, balki ularni amaliyotda qöllaş, ta’lim oluvçilar bilan samarali muloqot örnatiş, pedagogik muammolarga ijodiy yondaşiş va öz faoliyatini muntazam takomillaştirişni ham talab etadi.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli “Özbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi Farmonida oliy ta’lim sifatini oşiriş, raqobatbardoş kadrlar tayyorlaş, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etiş masalalari ustuvor yönalişlar sifatida belgilangan [1]. Şuningdek, 2025-yil 28-apreldagi PF–73-sonli “Pedagog kadrlar tayyorlaş tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi Farmonida pedagog kadrlar tayyorlaş tizimini yagona yondaşuv asosida takomillaştiriş, ta’lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida rivojlantiriş hamda ilm-fan va amaliyot uyğunligini ta’minlaşga alohida e’tibor qaratilgan [2].

Mazkur talablar bölajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirişda pedagogik mahoratni şakllantiriş masalasiga yangiça yondaşişni taqozo etadi. Ayniqsa, kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ta’lim faoliyati kasbiy bilim va könikmalarni çuqurlaştiriş, öz ustida işlaş hamda pedagogik faoliyatga tayyorlanişning muhim vositasi sifatida namoyon böladi.

Şu nuqtayi nazardan, talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantiriş jarayonida mustaqil ta’lim mazmuni, uni taşkil etiş va boşqariş mexanizmlari hamda natijalarni baholaş tizimi bilan boğliq muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qiliş dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi – talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantiriş bilan boğliq asosiy pedagogik muammolarni aniqlaş, ularning mazmun-mohiyatini oçib beriş hamda bartaraf etiş böyiça ilmiy-metodik takliflarni asoslaşdan iborat.

Asosiy qism. Pedagogik mahorat bölajak öqituvçining kasbiy bilimlari, amaliy könikmalari, şaxsiy va kommunikativ sifatlarining pedagogik faoliyatda yaxlit, izçil va ijodiy namoyon bölişini ifodalaydi. Uning rivojlanişi pedagogik nazariya, amaliy faoliyat, mustaqil izlaniş va kasbiy refleksiyaning özaro uyğunligiga boğliq.

N.N. Azizxöjayeva pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat masalalarini özaro boğliqlikda körib çiqib, ta’lim jarayonini samarali taşkil etiş, pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalaniş va ta’lim oluvçilar faoliyatini boşqarişning ahamiyatini asoslaydi [3]. N.A. Muslimovning ilmiy qaraşlarida esa bölajak mutaxassisning kasbiy şakllanişi nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy könikma va kasbiy sifatlarni izçil rivojlantiriş bilan boğliq holda talqin etiladi [4].

A.A. Xoliqovning pedagogik mahoratni rivojlantirişga oid tadqiqotlarida pedagogik texnika, notiqlik san’ati, kreativlik, eruditsiya va intellektuallik kabi jihatlarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur ilmiy qaraşlar pedagogik mahoratning köp tarkibli xususiyatga ega ekanligini körsatadi [5].

Bizning fikrimizça, talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantirişni faqat auditoriya maşğulotlari bilan çeklaş mumkin emas. Uşbu jarayonda mustaqil ta’lim faoliyatining mazmuni, taşkil etilişi va natijadorligini ta’minlaş muhim pedagogik şartlardan biri hisoblanadi.

Nazariy tahlillar asosida talabalarning pedagogik mahoratini mustaqil ta’lim faoliyatida rivojlantiriş bilan boğliq quyidagi uçta asosiy pedagogik muammoni ajratib körsatiş mumkin.

1. Mustaqil ta’lim mazmunining pedagogik mahoratni rivojlantirişga yetarliça yönaltirilmaganligi. Talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantirişda uçraydigan birinçi muammo mustaqil ta’lim topşiriqlarining mazmuni bilan boğliq. Oliy ta’lim jarayonida mustaqil işlar talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlaş va mustaqil izlaniş könikmalarini rivojlantirişga xizmat qiladi. Biroq ularning mazmuni har doim ham bölajak pedagogning kasbiy-amaliy faoliyatiga zarur bölgan könikmalarni şakllantirişga yönaltirilmaydi.

Jumladan, mustaqil ta’lim topşiriqlarida referat tayyorlaş, konspekt yoziş, taqdimot yaratiş va test topşiriqlarini bajariş kabi reproduktiv faoliyat turlari ustunlik qilişi mumkin. Bunday topşiriqlar nazariy ma’lumotlarni özlaştirişga yordam bersa-da, pedagogik faoliyatda zarur böladigan amaliy könikmalarni töliq rivojlantiriş imkonini bermaydi.

Xususan, pedagogik texnika, nutq madaniyati, ovozdan foydalaniş, mimika va pantomimika, kommunikativ mahorat, dars jarayonini loyihalaş, pedagogik vaziyatlarni hal qiliş hamda öz faoliyatini tahlil qiliş kabi könikmalar mustaqil ta’lim jarayonida yetarliça maşq qilinmasligi mumkin.

Yana bir muhim jihat şundaki, mustaqil ta’lim topşiriqlari bilan pedagogik amaliyot örtasidagi uzviylikning yetarli darajada ta’minlanmasligi talabaning nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qöllaş imkoniyatini çeklaydi.

Mazkur muammoni bartaraf etiş uçun mustaqil ta’lim topşiriqlarini pedagogik mahoratning tarkibiy komponentlariga muvofiq işlab çiqiş zarur. Masalan, mikro-dars taşkil etiş va videoyozuv orqali tahlil qiliş, pedagogik keyslarni yeçiş, dars işlanmalarini loyihalaş, kommunikativ vaziyatlarni modellaştiriş hamda refleksiv kundalik yuritiş kabi topşiriqlardan foydalaniş maqsadga muvofiq. Bunday topşiriqlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan boğlaş, kasbiy vazifalarni mustaqil bajariş va öz pedagogik imkoniyatlarini baholaş könikmalarini rivojlantirişga xizmat qiladi.

2. Mustaqil ta’lim jarayonini boşqariş va pedagogik qöllab-quvvatlaş mexanizmlarining takomillaşmaganligi. Ikkinçi muammo mustaqil ta’lim faoliyatini taşkil etiş va boşqariş jarayoni bilan boğliq. Mustaqil ta’lim talabaning öz oldiga maqsad qöyişi, faoliyatini rejalaştirişi, belgilangan vazifalarni bajarişi, natijalarni nazorat qilişi va öz faoliyatiga baho berişini talab qiladi. Biroq barça talabalar ham bunday faoliyatni mustaqil ravişda samarali taşkil etiş uçun yetarli darajadagi özini özi boşqariş va öz-özini nazorat qiliş könikmalariga ega bölmasligi mumkin. Ayrim hollarda öqituvçi tomonidan talabaning faqat yakuniy işi baholanib, topşiriqni bajariş jarayoni, yuzaga kelgan qiyinçiliklar va ularni bartaraf etiş yöllariga yetarliça e’tibor qaratilmaydi.

Natijada talaba mustaqil işni bajariş davomida zarur metodik yordam, maslahat va teskari aloqadan çetda qolişi mumkin. Bu esa mustaqil ta’limning mazmunan rivojlantiruvçi faoliyatdan köra, belgilangan topşiriqni rasmiy bajariş şakliga aylaniş xavfini yuzaga keltiradi.

Şuningdek, raqamli ta’lim imkoniyatlaridan, jumladan, LMS platformalari, elektron portfolio, videomateriallarni tahlil qiliş va özaro baholaş vositalaridan tizimli foydalaniş ham muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizça, mustaqil ta’lim jarayonini samarali taşkil etiş uçun uni bosqiçma-bosqiç pedagogik boşqariş mexanizmini takomillaştiriş lozim. Bunda quyidagi izçillikka amal qiliş maqsadga muvofiq:

1. *Maqsadni belgilaş* – talaba tomonidan mustaqil ta’lim topşiriğining maqsadi va kutilayotgan natijalarini

anglaş.

2. Faoliyatni amalga oşiriş – topşiriqlarni mustaqil bajariş, zarur manbalar bilan işlaş va amaliy vazifalarni hal qiliş.
3. Teskari aloqa – öqituvçi yoki tyutor tomonidan bajarilgan iş yuzasidan tavsiyalar va metodik kömak beriş.
4. Refleksiya – talabaning öz faoliyatini tahlil qilişi, yutuq va kamçiliklarini aniqlaşi hamda keyingi rivojlaniş yönalişlarini belgilaşi.

Uşbu bosqiçlarning izçil taşkil etilişi talabaning mustaqil ta’limga mas’uliyat bilan yondaşişiga, öz faoliyatini boşqarişiga va pedagogik mahoratini muntazam rivojlantirişiga imkon yaratadi.

3. Pedagogik mahoratning rivojlanganlik darajasini baholaş mezonlari va vositalarining yetarliça tizimlaştirilmaganligi. Uçinçi muammo talabalarning pedagogik mahorati rivojlanişini baholaş bilan boğliq. Pedagogik mahorat murakkab va köp tarkibli kasbiy sifat bölganligi sababli uni faqat bajarilgan mustaqil işning hajmi, mazmuni yoki rasmiylaştirilişiga qarab baholaş yetarli emas. Bunda talabaning nazariy bilimlarni egallaş darajasi bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda qöllay olişi, pedagogik vaziyatlarga munosabati, muloqot madaniyati, ijodiy yondaşuvi va öz faoliyatini tahlil qiliş qobiliyatini ham hisobga oliş zarur.

Ayrim hollarda mustaqil ta’lim natijalari umumiy ball asosida baholanib, pedagogik mahoratning alohida tarkibiy qismlari böyiça rivojlaniş dinamikasi aniqlanmaydi. Natijada talabaning qaysi jihatlari rivojlanganligi, qaysi könikmalar ustida qöşimça işlaş zarurligi töliq namoyon bölmaydi.

Mazkur muammoni bartaraf etiş uçun pedagogik mahoratning rivojlanganlik darajasini aniqlaşga xizmat qiluvçi mezonlar, körsatkiçlar va diagnostik vositalarni tizimlaştiriş zarur.

Bizning yondaşuvimizga köra, baholaş jarayonida quyidagi mezonlardan foydalaniş mumkin:

Kognitiv mezon – pedagogik va psixologik bilimlarni egallaş, pedagogik tuşunçalarni anglaş va nazariy bilimlarni tahlil qiliş darajasi.

Amaliy-faoliyatli mezon – pedagogik vazifalarni bajariş, darsni loyihalaş va pedagogik vaziyatlarni hal qiliş könikmalari.

Kreativ mezon – pedagogik muammolarga ijodiy yondaşiş, yangi ğoyalar va muqobil yeçimlarni işlab çiqiş qobiliyati.

Motivatsion mezon – pedagogik kasbga qiziqiş, kasbiy rivojlanişga intiliş va mustaqil ta’limga mas’uliyatli munosabat.

Kommunikativ mezon – pedagogik muloqot örnatiş, fikrni aniq ifodalaş va hamkorlikni taşkil etiş qobiliyati.

Refleksiv mezon – öz faoliyatini tahlil qiliş, xatolarni aniqlaş va kasbiy rivojlaniş yönalişlarini belgilaş qobiliyati.

Mazkur mezonlar asosida rubrikalar, pedagogik mahorat portfoliosi, mikro-darslarni kuzatiş varaqalari, keys-topşiriqlar va refleksiv kundaliklardan foydalaniş mumkin. Şuningdek, talabalarning rivojlaniş dinamikasini aniqlaş uçun yuqori, örta va quyi darajali baholaş şkalasini işlab çiqiş maqsadga muvofiq. Bu esa mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning pedagogik mahorati qay darajada rivojlanayotganini aniqlaş, mavjud kamçiliklarni belgilaş va qöllanilayotgan metodikaning samaradorligini baholaş uçun metodik asos yaratadi.

Yuqoridagi tahlillar şuni körsatadiki, talabalarning pedagogik mahoratini mustaqil ta’lim faoliyatida rivojlantiriş mazmun, jarayon va natijalarni baholaşning özaro boğliqligini ta’minlaşni talab etadi.

Quyidagi jadvalda aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etiş yönalişlari umumlaştirilgan.

1-jadval. Talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantirişdagi pedagogik muammolar va ularning yeçimlari

PEDAGOGIK MUAMMOLAR	MUAMMONING NAMOYON BÖLIŞI	TAKOMILLAŞTIRIŞ YÖNALIŞLARI
Mustaqil ta’lim mazmunining kasbiy-amaliy yönalişi yetarli emasligi	Reproduktiv topşiriqlarning ustunligi, amaliy könikmalarning kam maşq qilinişi	Mikro-dars, keys, dars loyihasi va refleksiv topşiriqlar tizimini joriy etiş

PEDAGOGIK MUAMMOLAR	MUAMMONING NAMOYON BÖLIŞI	TAKOMILLAŞTIRIŞ YÖNALIŞLARI
Mustaqil ta’limni boşqariş mexanizmlarining takomillaşmaganligi	Jarayon davomida teskari aloqa va metodik yordamning yetarli emasligi	Bosqiçma-bosqiç boşqaruv, tyutorlik va raqamli qöllab-quvvatlaşni taşkil etiş
Baholaş mezonlari va vositalarining tizimlaştirilmaganligi	Pedagogik mahorat ösişining alohida körsatkiçlar asosida aniqlanmasligi	Mezonlar, körsatkiçlar, rubrikalar va diagnostik vositalar tizimini işlab çiqiş

Jadvaldan körinadiki, har bir muammo öziga xos yeçimni talab etsa-da, ularning barçasi yagona maqsad – talabalarning pedagogik mahoratini mustaqil ta’lim faoliyati orqali izçil rivojlantirişga xizmat qiladi. Şu sababli mustaqil ta’limni faqat auditoriyadan taşqarida bajariladigan topşiriqlar yiğindisi sifatida emas, balki talabaning kasbiy şakllanişini ta’minlovçi, nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan boğlovçi va öz-özini rivojlantirişga yönaltiruvçi yaxlit pedagogik jarayon sifatida taşkil etiş zarur.

XULOSA

Örganilgan nazariy qaraşlar va amalga oşirilgan tahlillar asosida talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantiriş jarayonida bir-biri bilan uzviy boğliq bölgan uçta asosiy pedagogik muammo mavjudligi asoslandi.

Birinçidan, mustaqil ta’lim mazmunini pedagogik mahoratning tarkibiy komponentlariga muvofiq takomillaştiriş, reproduktiv topşiriqlar bilan bir qatorda amaliy, ijodiy va refleksiv topşiriqlar uluşini oşiriş zarur.

Ikkinçidan, mustaqil ta’lim jarayonini maqsadni belgilaş, faoliyatni amalga oşiriş, teskari aloqa va refleksiya bosqiçlari asosida taşkil etiş, bunda öqituvçi va tyutorning metodik qöllab-quvvatlaş imkoniyatlaridan foydalaniş muhimdir.

Uçinçidan, pedagogik mahoratning rivojlanganlik darajasini aniqlaş uçun kognitiv, amaliy-faoliyatli, kreativ, motivatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlarni qamrab olgan baholaş tizimini şakllantiriş lozim.

Bizning fikrimizça, mazkur muammolarni özaro uyğunlikda hal etiş talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini kasbiy rivojlaniş vositasiga aylantiriş, ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlaş va pedagogik mahoratini izçil rivojlantiriş uçun zarur pedagogik-metodik şart-şaroitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “Özbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi Farmoni. – https://lex.uz/docs/-4545884
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son “Pedagog kadrlar tayyorlaş tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi Farmoni. – https://lex.uz/docs/-7499721
3. Azizxöjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toşkent: Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi Adabiyot jamğarmasi naşriyoti, 2006. – 160 b.
4. Muslimov N.A. Bölajak kasb ta’limi öqituvçilarini kasbiy şakllantiriş. – Toşkent, 2006. – 357 b.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toşkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.